

Andijon davlat tibbiyot instituti ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrası



Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrası

tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent:

Yuldashev Rafiqjon No'manovich

Tel: +99891-614-72-80

e-mail: yuldashev_1958@mail.ru

ICHKI KASALLIKLAR PROPEDEVTIKASI KAFEDRASINING TARIXI VA FAOLIYATI

Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrası 1957-yili viloyat shifoxonasining 120 o'ringa mo'ljallangan ichki kasalliklar bo'limida tashkil qilingan. Unga mudir etib, tibbiyot fanlari nomzodi V.A. Arustamyan tayinlangan.

Kafedrada tibbiyot fanlari nomzodi A.A.Boltaboev, assistentlardan O.G.Morozova, Ye.N.Konstantinov va N.A.Alimovalar ishlaganlar.

O'sha paytda Samarqand davlat tibbiyo instituti dotsenti A.Ya.Malyar talabalarga 2 hafta davomida ko'rgazmali ma'ruzalar o'qib bergan. Shundan so'ng, ma'ruzalarni kafedra mudiri, t.f.n. V.A.Arustamyan o'qiy boshlagan.

1958 –1959 yillari kafedrani professor G.M.Efendiev boshqargan. U bir paytning o'zida fakultativ terapiya kafedrasini ham mudiri hisoblangan.



Kafedra mudiri, professor
B.I.Soybel.

1959-yilning avgust oyidan boshlab kafedraga dotsent B.I.Soybel mudir etib tayinlangan. Bu paytda kafedra 60 o'rinli 1 – shahar shifoxonasida faoliyat ko'rsatgan. Yildan yilga kafedra a'zolari soni orta boshlagan. Kafedraga dotsent Sh.K.Botirov, assistentlardan S.S.Medvedeva, Z.I.Xasanovalar kelib qo'shilishgan.

1961 –1972 yillari kafedra shahardagi temir yo'l shifoxonasining 60 o'rinli ichki kasalliklar bo'limida faoliyat ko'rsata boshlagan. Shu yerda kafedraga assistentlar L.X. Ilesov, I.A.Ali –Zade, A.D.Skvorsova,

G.N.Yushina, S.Yu.Tursunov, Z.S.Velmizovalar ishga qabul qilingan.

Shu yillar davomida kafedrada kardiologiya bo'yicha keng ko'lamda ilmiy ishlar olib borilgan. Natijada kafedra mudiri dotsent B.I.Soybel doktorlik va assistentlardan Ye.N.Konstantinov, Z.I.Xasanova, S.Yu.Tursunovlar nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilganlar.

1972 –1975 yillari esa kafedraga professor I.F.Fatxullaev rahbarlik qilgan. Bu paytda kafedra viloyat shifohonasining 120 o'rinli ichki kasalliklar bo'limida joylashgan.

1975-yili kafedra mudiri etib dotsent S.Yu.Tursunov tayinlangan. Kafedrada o'sha paytda 2 nafar dotsent, 14 nafar assistent, 4 nafar klinik ordinator va 3 nafar preparator ishlagan.

1968-yildan 1975-yilgacha kafedrani o'quv ishlari bo'yicha mas'ul lavozimida dotsent Z.I.Xasanova va 1975-yildan 1983-yilgacha esa dotsent O.S.Saloxiddinov faoliyat ko'rsatgan.

Shu yillarda kafedrada o'quv jarayonini takomillashtirish borasida juda ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, har bir o'quv xonalari inson tizimlari (nafas, yurak qon –tomir, buyrak, jigar va x.k.) bo'yicha bo'linib, bu xonalar shu tizimlar bo'yicha kerakli tablitsa, plakat va asbob –uskunalar, texnik vositalar bilan jihozlangan. Ko'plab uslubiy qo'llanmalar yaratilgan, o'quv –uslubiy anjumanlar muntazam o'tkazib borilgan.

Ilmiy ishlar «Yurak, qon – tomir tizimining fiziologiya va patologiyasi» rukni ostida bajarila boshlangan. Ilmiy ishlar bajarilishi uchun yetarli sharoitlar yaratilgan. Moskva, Leningrad, Kiev, Novosibirsk, Bishkek kabi yirik shaharlar kardiolog olimlari bilan hamkorlik qilina boshlagan. Epidemiologik va profilaktik ishlarga asos solingan. Bajarilayotgan ilmiy ishlarga Moskvadagi kardiologiya ilmiy markazi uslubiy markaz bo'lib hisoblangan.



**O'zbekiston fan arbobi,
Professor,
Tursunov Sayfitdin Yunusovich**



**Kafedra professori
O.S.Saloxiddinov.**

1982-yilgacha kafedrada 1 ta doktorlik (S.Yu.Tursunov) va 6 ta nomzodlik (O.S. Salohiddinov, B.M.Maxmudov, K.J.Xusainov, N.S.Mamasoliev, A.F.Nabieva) dissertatsiyalari himoya qilingan. 3 ta monografiya, 250 dan ziyod ilmiy maqolalar chop etilgan.

1983-yili professor S.Yu.Tursunov ichki kasalliklar subordinaturasi kafedrasiga mudir etib tayinlanishi munosabati bilan kafedraga dotsent O.S.Salohiddinov rahbarlik qila boshlagan.

Shu paytda kafedrada dotsentlar B.M.Mahmudov va G.N.Yushina hamda assistentlardan M.N.Nosirov, R.A.Yenileva, I.I.Ismoilov, M.N.Nig‘matjonovalar faoliyat ko‘rsatishgan.



Institut rektori professor A.K.Shodmonov hamda koreyalik mehmonlarning kafedraga tashrifi 2013-yil.

Dotsent O.S.Saloxiddinov kafedrani 1987-yilning sentabr oyigacha boshqargan va doktorlik ilmiy ishini davom ettirish uchun katta ilmiy xodim lavozimiga o‘tgan.

1987-yildan 1988-yilgacha kafedrani vaqtincha dotsent B.M.Mahmudov boshqarib turgan. 1988-yildan esa kafedraga doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan dotsent N.S.Mamasoliev boshqara boshlagan. 1997-yildan professor N.S.Mamasoliev umumiy amaliyot shifokori tayyorlash kafedrasiga mudir etib tayinlangach, kafedrani yana O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, Nyu–York Fanlar Akademiyasining a‘zosi, professor, S.Yu.Tursunov boshqargan.

Kafedrada: 1 nafar professor (O.S. Saloxiddinov), 1nafar tibbiyot fanlari doktori (A.X.Yuldashev) 4 nafar dotsent (M.N. Zuxritdinov, K.U.Usmanov, N.J.

Qosimova, U.S. Tursunov), 6 nafar assistent (t.f.n R.N.Yuldashev, G.N. Primqulova, D.G.Irgasheva, D.Z. Isaqova, S.A. Kityan, Z.S. Valieva, B.X.Qo'ldashev) 6 nafar klinik ordinator va 1 nafar aspirant faoliyat ko'rsata boshlagan.

1997-yili bu kafedraga pediatriya fakultetining ichki kasalliklar kafedrasini qo'shildi.



Kafedra asoschilari professor O.S.Saloxiddinov, assistent S.K.Xalikova va professor S.Yu.Tursunov. 2016-yil.

Pediatriya fakultetining ichki kasalliklar kafedrasini 1968-yili iyun oyida Andijon viloyati Andijon tumanining Yorboshi shifoxonasining terapiya bo'limida kurs bo'lib ochilgan. Kurs boshlig'i etib, tibbiyot fanlari nomzodi S.Yu. Tursunov, assistentlari etib esa O.Saloxiddinov va S.K. Xoliqovalar tayinlangan. Bu kursda avval pediatriya fakultetining 3-kurs talabalari ta'lim olganlar, so'ng bu yerda 4-kurs talabalari ham o'qiy boshlashi munosabati bilan 1969-yili kurs kafedraga aylantirilgan. Kafedraga yuqoridagi assistentlardan tashqari, assistent M.Ilyasov va X.D.Dolimovlar kelib qo'shilishgan.

1970-yili kafedra yangi qurilgan 3-shahar shifoxonasining terapiya bo'limiga ko'chib o'tgan. Keyinchalik bu kafedrada pediatriya fakultetining 3-4-5-6 kurs talabalari ham o'qiy boshlashi munosabati bilan kafedrada qo'shimcha ish o'rinlari ochilgan. Kafedraga assistentlar T.A.Bekirov, K.K.Soliev, B.N.Nuritdinovlar kelib qo'shilishgan.



Kafedra jamoasining bir guruhi. 2010-yil.

1973-yili Toshkentda O'rtta Osiyo pediatriya instituti ochilgandan so'ng, Andijon davlat tibbiyot institutida pediatriya fakulteti yopilgan. 1979-yilda yana bu fakultet qaytadan Andijon davlat tibbiyot institutida ochilgan. Kafedra shaharning temiryo'lchilar shifoxonasida joylashgan. Kafedraga dotsent T.Z.Jumaboev kafedra mudiri etib tayinlangan. Bu kafedrada assistentlardan Z.I.Xasanova, O.Kosimov, M.Azimova, B.Egamberdievlar faoliyat ko'rsatishgan. Kafedraga tibbiyot fanlari nomzodi M.A.Xo'jamberdiev, N.R.O'zbekova, F.A. Gabdulinalar kelib qo'shilishgan. Shu yili pediatriya fakultetining ichki kasalliklar kafedrasidan ichki kasalliklar propedevtikasi kursi ajralib chiqqan. Kurs rahbari etib, dotsent K.D.Jalolov tayinlangan. Ularni assistentlari etib, fan nomzodlari Yu.A Kalinin, A.M .Yagudaev va assistent A.D.Skvorsovalar tayinlangan.

1981-yili pediatriya fakultetining ichki kasalliklar kafedrasini institut klinikasining 4-terapiya bo'limiga o'tkazilgan va shu yili pediatriya fakultetining ichki kasalliklar propedevtikasi kursi shu kafedraga yana qo'shilgan. Kafedra mudiri etib, dotsent T.Z.Jumaboev tayinlangan. Dotsenti etib K.D.Jalolov tayinlangan. Shu yili bu kafedraga assistent G.Kosimov ishga qabul qilingan. 1982-yili dotsent K.D.Jalolov katta ilmiy xodim lavozimiga o'tgach, kafedra dotsentligiga dotsent M.N.Zuxritdinov o'tgan.

1984-yili kafedradan yana ichki kasalliklar propedevtikasi kursi ajralib chiqqan. Kurs rahbari etib, dotsent T.Z.Jumaboev assistentlari etib N.R.Uzbekova, L.Saitjonov, F.A.Gabdulinalar tayinlangan. Pediatriya fakultetining ichki kasalliklar kafedrasini mudiri etib esa dotsent G.F.Yushina tayinlangan. Dotsentlar

M.N.Zuxritdinov, Yu.N.Kalinin , assistentlar B.Azimova, N.Grishina, M.Maksimova, Yu.Yunusov, Yu.Nizamovlar faoliyat ko'rsatishgan.

1984-yili dotsent T.Z.Jumaboev katta ilmiy xodim lavozimiga o'tishi munosabati bilan bu kursga rahbar etib , dotsent K.K.Soliev tayinlangan. 1986-yilning sentabr oyida yana yuqoridagi kafedra kurs bilan birlashgan va viloyat shifoxonasining terapiya bo'limida faoliyat ko'rsata boshlagan. Kafedra mudiri etib, tibbiyot fanlari doktori K.D.Jalolov tayinlangan. Bu kafedraga shu yili dotsent K.U.Usmonov kelib qo'shilgan.Dotsent G.N.Yushina davolash fakultetining ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasiga o'tkazilgan.

1988-yili bu kafedra 200 o'rinli II-shahar shifoxonasiga qo'chirilgan. Shu yili kafedra mudiri, t.f.d. K.D.Jalolov davolash fakultetining umumiy amaliyot vrachlar tayyorlash kafedrasiga mudir etib tayinlangan. U kafedrani esa vaqtincha dotsent K.U.Usmonov boshqarib turgan.

1989-yilning aprel oyida bu kafedraga mudir etib, tibbiyot fanlari doktori O.Saloxiddinov tayinlangan. Shu vaqtda kafedrada 3 nafar dotsent: M.N.Zuxritdinov, K.U. Usmonov, Yu.A. Kalinin, assistentlardan G. Giyosov, B. Azimova, M.Maxsumova, M.Axmedova, O. Kosimov, I.Nugmonova, A.Xamidov, A.Garumov, Ye.Grishinalar faoliyat ko'rsatishgan.

Katta jamoa o'quv –uslubiy, ilmiy tekshirish, davolash, otalik va jamoat ishlari, manaviy-marifiy ishlarni takomillashtirish borasida ko'plab ijobiy ishlarni amalga oshirganlar.

Kafedra xodimlari yurak, qon-tomir kasalliklari epidemiologiyasi va profilaktikasi borasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Kafedra xodimlari o'quv jarayonini takomillashtirish borasida tinmay izlanib, yangi o'quv texnologiyalarini o'quv jarayoniga faol tatbiq etganlar.

Shunday qilib, ichki kasalliklar propedevqtikasi kafedrasida davolash fakultetining 2-3 kurs va pediatriya fakultetining 3-4-5 kurs talabalari tahsil ola boshlagan.

Kafedrada har yili kamida 4 –6 tadan yangi o'quv –uslubiy qo'llanmalar hamda ichki kasalliklar fanidan 4 ta darslik yaratilgan.

Kafedra mudiri, professor S.Yu.Tursunovning tashabbusi bilan respublikaning barcha tibbiyot institutlari uchun pediatriya fakultetining ichki kasalliklar propedevtikasi, ichki kasalliklar fanlari bo'yicha namunaviy dastur yaratilgan. O'quv jarayonida yangi, zamonaviy texnik vositalardan keng qo'llanilgan.

Professorlar S.Yu.Tursunov va O.S.Salohiddinovlar bu borada risolalar, ma'naviyatga oid yuzlab maqolalar chop etishgan. Ma'ruza va amaliy darslarning ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy jihatlariga katta e'tibor berilmoqda.

Barkamol avlod tarbiyasi – kafedra xodimlarining eng asosiy burchlaridan biri bo'lib kelgan. Shu yillar davomida ilmiy izlanishlar borasida ko'plab muvaffaqiyatlarga erishildi. Professor S.Yu.Tursunov rahbarligida 10 ta doktorlik va 28 ta nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi.

Shu ilmiy tadqiqotlar tayyorlanish jarayonida Respublikada professor S.Yu.Tursunov rahbarligida profilaktik kardiologiya maktabi yaratildi.

Bu maktab faoliyati professorlar O.S.Salohiddinov va N.S.Mamasoliev muallifligida 2003-yili chop etilgan «Profilaktik kardiologiya maktabi» deb nomlangan monografiyada o'z aksini topgan.

Bu maktab a'zolarining tashabbusi bilan Andijonda 4 marta Xalqaro va 2 marta Respublika miqyosida yirik ilmiy –anjumanlar va ishchi yig'inlari o'tkazilgan.

Hozirda bu maktab vakillari har yili kamida 1 tadan monografiya chop etmoqda. Ko'plab ilmiy maqola, tezislarni Xalqaro, Respublika miqyosidagi jurnal va to'plamlarda chop etmoqdalar.



**Professor Djon Sherron va Sherron Xerring (Texas AQSH)
Professor S.YuTursunov bilan.**

Davolash va otaliq ishlarini ham kafedra xodimlari fidoyilik bilan olib bormoqdalar. Har yili klinika miqyosida kardiologiyaning dolzarb muammolari bo'yicha ilmiy anjumanlar muntazam o'tkazib boriladi. Fan yangiliklarini

amaliyotga o'z vaqtida qo'llab borilmoqda. Farg'ona vodiysining kardiologik shifoxonalariga otaliq yordami ko'rsatib borilmoqda.

Kafedra xodimlari respublika, viloyat, shahar va institut miqyosidagi jamoat ishlarida faol qatnashadilar.

Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasini 2012-yildan boshlab, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent Yuldashev Rafiqjon No'manovich boshqarib kelmoqda. Uning faoliyati institutning gospital terapiya, 2-UASHT, VMOF terapiya, IKP kafedralari bilan bog'liq bo'lib, nomzodlik dissertatsiyasini 2010-yilda muvaffaqiyatli himoya qilgan. R.N.Yuldashev o'zining ilmiy faoliyati davomida bir dona monografiya, 2 ta ommabop kitob, 30 dan ortiq metodik qo'llanmalar, 40 dan ortiq ratsionalizatorlik takliflari va amaliyotga qo'llanmalar, 400 ga yaqin xalqaro va Respublika miqyosidagi jurnal va to'plamlarda tezis hamda maqolalarga mualliflik va hammualliflik qilgan. Uning rahbarligida kafedrada hozirgi kunda 2 nafar professor (S.Yu.Tursunov, O.S. Saloxiddinov), 1 nafar tibbiyot fanlari doktori (A.X.Yuldashev) 3 nafar dotsent (M.N. Zuxritdinov, N.J. Qosimova, A.X.Yuldashev), 9 nafar assistent (katta o'qituvchi Z.V.Yunusova, G.N. Primqulova, D.G.Irgasheva, D.Z. Isaqova, S.A. Kityan, Z.S. Valieva, N.Musayeva, D.A.Xamidov, G.O.Toshmatova) 5 nafar klinik ordinator faoliyat ko'rsatmoqdalar.



Kafedra hodimlari. 2017-yil.

Shuningdek, R.N.Yuldashev o'z faoliyati davomida Oltinko'l tumani markaziy shifoxonasi bosh vrach muovuni, viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasida bosh

terapevt lavozimlarida ishlagan chog'ida bir qator tashkilotchilik ishlarida faol ishtirok etgan.

Hozirda kafedrada yangi o'quv texnologiyalarini amaliyotga tadbiq etish bilan bir qatorda kafedraning ilmiy yo'nalishlarini izchillik bilan shakllantirib, kafedra ilmiy salohiyatini ko'tarishning muhim omillari ishlab chiqildi.

Kafedra mudiri, R.N.Yuldashev ustozlari - professorlar N.S. Mamasoliev, S.Yu.Tursunov, O.S.Saloxiddinovlar tajribalariga tayangan holda kafedrada o'quv, davolash, ilmiy-ma'rifiy ishlarni jadallashtirmoqda va takomillashtirmoqda. Kafedra Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, Toshkent davlat pediatriya instituti, Toshkent Vrachlar malakasini oshirish institutlari, Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya markazi, Respublika terapiya va reabilitatsiya ilmiy markazi, respublikamizning bir qator ilmiy tekshirish institutlari, Samarqand tibbiyot instituti, Toshkent tibbiyot Akademiyasining Farg'ona, Urganch, Nukus filiallari, Buxoro tibbiyot instituti va Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Belorussiya, Ozarbayjon Respublikalari tibbiyot institutlari bilan ilmiy aloqalar bog'lagan. Xodimlarning chet tillarini o'rganish, ingliz tilida bemaol gaplasha olish va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, kompyuter savodxonligini oshirishiga alohida e'tibor berildi.

Hulosa qilib aytganda, kafedra jamoasi butun kuch – g'ayratini yosh avlodni har tomonlama yetuk mutaxassislar qilib tayyorlashga qaratib tashabbus bilan mexnat qilmoqdalar.